

BUXORO IXTISOSLASHTIRILGAN “JAYRON” PITOMNIGI – EKOTURIZM OBYEKTI SIFATIDA

BUKHARA SPECIALIZED “JAYRON” BREEDING CENTER AS AN ECOTOURISM SITE

Jalilova Charos Zarifovna

Bukhara State Pedagogical Institute

Lecturer of the Department of Geography

Bobokalonova Madinabonu Ziyodullo qizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Student of the Geography and Fundamentals of Economic Knowledge program

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro ixtisoslashtirilgan "Jayron" pitomnikining turistik imkoniyatlari o'rganilgan. Maqolada "Jayron" pitomnigining tashkil etilishi, hozirgi faoliyati, pitomnikdagi fauna va flora haqida so'z boradi. Shuningdek, pitomnikda turistlar uchun yo'lga qo'yilgan qulayliklar ham yoritilib berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается туристический потенциал Бухарского специализированного питомника «Жайрон». В статье рассматривается организация питомника «Жайрон», его текущая деятельность, фауна и флора питомника. Также освещаются удобства, предоставляемые туристам в питомнике.

Annotation: This article studies the tourist potential of the Bukhara specialized "Jayron" nursery. The article discusses the organization of the "Jayron" nursery, its current activities, the fauna and flora in the nursery. The amenities provided for tourists in the nursery are also highlighted.

Kalit so'zlar: Buxoro viloyati, tabiat, "Jayron"pitomniki, turizm, ekoturizm, qo'riqlanadigan maskanlar, hayvonlar, o'simliklar, cho'l.

Ключевые слова: Бухарская область, природа, питомник «Жайрон», туризм, экотуризм, особо охраняемые природные территории, животные, растения, пустыня.

Keywords: Bukhara region, nature, "Jayron" nursery, tourism, ecotourism, protected areas, animals, plants, desert.

Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi Qizilqum cho‘lining janubiy etaklarini o‘z ichiga oladi. Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi davlat tabiatni muhofaza qilish, kamyob hayvon turlarini ko‘paytirish ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi. Buxoro ixtisoslashtirilgan “Jayron” pitomnigi hududi – Kogon va Qorovulbozor shaharlari orasida, A-380 avtomagistrali bo‘ylab Buxoro viloyatining Buxoro tumani hududida joylashgan. Maydoni 16522 gektar bo‘lib, shundan 1-hudud 5145 gektar, sim to‘siq bilan himoyalangan, 2-hudud 11377 gektar ochiqlik maydonidan iborat.

Pitomnikning tabiiy sharoiti cho‘l iqlimiga xos bo‘lib, Qizilqum cho‘lining Janubi-g‘arbiy qismi, Karnabcho‘l massivida landshaftlaridan iborat. Hudud dengiz sathidan o‘rtacha 332 m balandlikda bo‘lib, past tepalikli qumlar, taqirlar, sho‘rxoklar, gipsli qatlam, toshloqlar va ko‘llardan iborat. 1 - hududning janubiy qismi turli xil sho‘rlanish darajasiga ega 3 ta ko‘ldan iborat ko‘llar majmuasi mavjud. Ko‘llardagi suv Amu-Buxoro kanalidan oqib o‘tadigan ariq, yer osti sizot suvlari va yillik yog‘in miqdori hisobidan shakllanadi. 2 - hududning Qaynagach past tog‘i yaqinida yer osti sizot suvlaridan shakllanadigan turli darajadagi sho‘rlanishga ega 4 ta kichik tabiiy suvliklar joylashgan.

“Jayron” pitomnigi qurg‘oqchil zonada joylashgan bo‘lib, keskin kontinental iqlimi bilan ajralib turadi. Havo harorati, yozda + 43, +48 °S ga, qishda esa -16, -23 °S ga tushishi mumkin. Yillik yog‘in miqdori 150-200 mm atrofida. Pitomnik hududida saksovulzorlar, to‘qaylar, tuzli botqoq va taqir o‘simliklari mavjud. Pitomnikda o‘simliklarning 46 oila, 182 turkumga mansub, 267 turdagi yuksak o‘simliklar o‘sadi. Pitomnik faunasi tarkibida qushlarning 257 turi, sutemizuvchilarning 36 turi, baliqlarning 8 turi, sudralib yuruvchilarning 18 turi, suvda va quruqlikda yashovchilarning 2 turi, umurtqasizlarning 700 ga yaqin turi uchraydi.

Pitomnikda quyidagi asosiy sutemizuvchi turlari maxsus sharoitlarda ko‘paytiriladi: jayron (1086 bosh), turkman quloni (76 bosh), prjeval oti (22 bosh), buxoro tog‘ qo‘yi (38 bosh), buxoro bug‘usi (1 bosh).

Jayron pitomnigida ekoturizm masalasida ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Ekologik turizmni amalga oshirish uchun 8 ta ekomarshrutlar ishlab chiqilgan:

1-marshrut - voler majmuasi, uzunligi 500 m. piyoda sayohat vaqt davomiyligi 30 daqiqa.

2-marshrut - voler majmuasi - kichik tuzli ko‘l, uzunligi 2 km, piyoda sayohat vaqt davomiyligi 2 soat.

3-marshrut - Voler kompleksi – ko‘llar – birinchi kuzatuv minorasi, uzunligi 5 km, piyoda sayohat vaqt davomiyligi 4 soat.

4-marshrut - Voler kompleksi – Amu- Buxoro mashina kanali bo‘ylab o‘tadigan janubiy yo‘l. Avtomobilda sayohat: uzunligi 7 km, vaqt davomiyligi 1,5-2 soat.

5-marshrut - Voler kompleksi - Amu- Buxoro mashina kanali bo‘ylab o‘tadigan janubiy yo‘l - 2-ochiqlik hududi bo‘ylab sayohat. Avtomobilda sayohat masofa 40 km, vaqt davomiyligi 4-5 soat. Yo‘nalish uchun cho‘lda yura oladigan avtomobil kerak bo‘ladi. Ushbu marshrut 1- va 4-marshrutlarni ham ko‘rish imkonini o‘z ichiga oladi.

6- marshrut. Qaynagach tog‘i. Piyoda sayohat: masofa 14 km. Vaqt davomiyligi 5-6 soat.

7-marshrut (piyoda) va 8-marshrut (avtomobilda). Kechki ya'ni tundagi sayohatlar. Ikkinchi hududda avtoullovda sayohat: uzunligi 10-15 km, davomiyligi 3 soat.

Pitomnikga yaqin aholi punktlari Qorovulbozor tumanidagi “Cho‘lquvar” MFY (10 km) va Kogon shahri (25 km) hisoblanadi. Pitomnik hududida mehmonxona va “Tashrif markazi” binosi qurilgan. Unda mehmonlar uchun sharoitlar ham ko‘zda tutilgan. Jayron pimomnigi viloyat markazi – Buxoro shahridan 42 km, Kogon

shahridan 25 km, Qorovulbozor tumanidan 15 km masofada joylashgan. Bu noyob maskan 1977 - yilda barpo etilgan bo'lib, muhofaza qilinadigan hudud maqomiga ega. Bugungi kunda, qo'riqxonaning maydoni 16,5 ming gektarni tashkil qiladi va undagi hayvonlar yarim volyer sharoitda parvarish qilinadi. Ekologik markazni yaratish jarayonida, noyob hayvonlar yashashi uchun yaroqli ulkan hudud simto'r bilan o'raldi va hayvonlar, shu jumladan, jayronlarni, qishloqlaridagi mahalliy aholi va Qizilqum cho'li kengliklaridan yig'ib kelindi. O'sha paytlarda, ko'plab oilalar jayronlarni tovuqlar kabi uylarida bezak sifatida saqlashar edi. Hudud, noqonuniy ovchilar va bosqinchilardan himoya qilina boshladi.

Bugungi kunda, ekomarkazda hayvonlarni parvarishlash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Markazning yaratilishi, nafaqat jayronlar, balki boshqa ko'plab noyob sutemizuvchilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar sonining ko'paytirilishiga imkon berdi. Pitomnikda, uzun tikonli tipratikonlar va qulonlar, Prjevalskiy otlari va Buxoro tog' qo'ylari, aylanma shoxli echkilar va pushti saqoqushlar, turnalar va oqqushlar, burgutlar va lochinlar, kulrang echkamarlar va O'zbekistondagi cho'l gududlarida yashovchi boshqa ko'plab hayvonlarini ko'rish mumkin. Unda, Amu-Buxoro mashina kanalidan kelib quyiladigan ko'llar mavjud bo'lganligi uchun hayvonlar doimo ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

Hozirda pitomnik hududi katta sur'atlar bilan obodonlashtirilmoqda. Tez kunlarda, noyob hayvonlarni tomosha qilish imkonini beruvchi qo'shimcha sayyohlik yo'nalishlari ochiladi. O'rta Osiyoda yashovchi yovvoyi otlarning kenja turi - Prjevalskiy otlarini tomosha qilish – kishiga katta zavq bag'ishlaydi. Bunday otlar juda noyob bo'lib, hozirgi kunda dunyoda ularning taxminan ikki ming donasi saqlanib qolgan. Kelgusida pitomnikda hayvonlar sonini ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, maxsus saytda 3D-sayohatlar yaratish ishlari rejalashtirilmoqda, unga tutash hududlarda esa qo'shimcha sayyohlik obyektlari tashkil etish va boshqa yana ko'plab ishlar rejalashtirmoqda.

“Jayron” pitomnigi Qizilqum cho‘lining janubi-g‘arbida joylashgan bo‘lib, 40 yildan ortiqroq vaqt mobaynida kamyob jonivorlarni ko‘paytirish bilan shug‘ullanadi. Uning faoliyati tufayli jayronlar, qulonlar, Prijevalskiy otlari, Buxoro tog‘ qo‘ylari, Buxoro bug‘ulari va vinsimon shoxli echkilari populyatsiyasi tobora o‘lib bormoqda. Ammo jonivorlar sonining ko‘payishi ozuqa zaxiralari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi. Uni hal qilish uchun “Jayron” pitomnigi “Do‘stlar klubi”ni – jonivorlarni yaxshi ko‘radigan kompaniyalar hamjamiyatini tashkil etdi, ularning xayriya yordamlari ozuqa sotib olishga sarflanadi. «Ozuqa sotib olish masalasi pitomnik oldida har yili yuzaga keladi. Bugungi kunda to‘silgan hududda 955 ta jayron, 155 ta qulon va 25 ta Prijevalskiy oti yashaydi. Tabiat faqat 800 ta jonivorni boqa oladi. Qolganlarini ochlikdan qirilib ketishdan saqlash – bugungi kunning dolzarb vazifasimiz. Pitomnik xodimlari yon-atrofdagi qo‘shni hududlardan turli o‘t-o‘lanlar, qamish, tuya yantog‘i, qandim kabilarni yig‘ib keladilar, lekin bu yetarli emas. Hayvonlarning yashab qolishi uchun homiylardan ko‘rsatilayotgan ko‘mak asos bo‘la oladi. Pitomnikga KNAUF kompaniyasi muntazam ravishda ko‘maklashib keladi, ularning yordamlari bilan arpa sotib olinmoqda. Bu qo‘shimcha ozuqa jonivorlarning qishdan chiqib olishiga yordam beradi. Hayvonlarga butun yil davomida qo‘shimcha ozuqa berib turiladi. 2024-yil oktyabr holatiga ko‘ra, bu yerda maxsus ko‘paytiriladigan 816 bosh jayron, 76 bosh ta turkman quloni, 21 bosh Prijevalskiy oti, 28 bosh Buxoro tog‘ qo‘yi va 1 bosh Buxoro bug‘usi bor edi. Ular biostansiyaning ixcham, lekin xavfsiz to‘siqlar ichida erkin harakatlanish imkoniga ega. Unda yana saksovlzorlar, to‘qaylar, tuzli botqoq va ko‘llar mavjud. Pitomnikda qushlarning 250 dan ortiq, sudralib yuruvchilarning 18 dan ortiq, baliqlarning 15 ga yaqin va o‘simliklarning 250 dan ortiq turi uchraydi. Pitomnik ilmiy xodimi Po‘lat Toshevning aytishicha, shulardan 57 tasi noyob, O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan turdagi jonivorlar hisoblanadi. Bu pitomnikning nomi “Jayron” deb atalishi bejiz emas. Jayronlar — O‘rta Osiyoning timsoli, yugurishda to‘xtovsiz, ziyrak va jozibali hayvonlar. Ular nafaqat biologik, balki madaniy ahamiyatga ham ega. O‘zbek xalq

ogʻzaki ijodi, rassomchiligi va hunarmandchiligiga nazar tashlar ekansiz, goʻzallik va ozodlik ramzi sifatida jayronlar namoyon boʻlishini koʻrasiz. Hatto, fotograflar uchun ham bu jonzotlarni suratga tushirish eng murakkab, biroq eng zavqli lahzadir. Ular kameradan qoʻrqmaydi, balki sizni kuzatadi – odamzod va tabiat oʻrtasidagi aloqa shu yerda qayta tiklangandek boʻladi, goʻyo.

Soʻnggi yillarda “Jayron”da ekoturizm yoʻnalishlari faol rivojlantirilmoqda. Bu nafaqat mahalliy, balki xorijiy mehmonlar uchun ham qiziqarli yoʻnalishga aylangan. Tashrif buyuruvchilarga hayvonlar hayoti bilan yaqindan tanishish, tabiiy muhitda kuzatuv olib borish va 20 kishilik mehmonxonada tunash imkoni yaratilgan. Qolaversa, unda gid bilan piyoda yoki avtomobilda ekskursiya qilish, kuzatuv minorasidan hayvonlarni tomosha qilish, avtomobil tunda sayrga chiqish, jayronlar oralab yurish, ularni oziqlantirish, quyosh chiqishi va botishida tabiatni kuzatish mumkin.

Ekoturizmni rivojlantirish uchun Buxoro viloyatidagi “Jayron” pitomnigida turistik infrastruktura tashkil etilgan. Bu yerda tashrif markazi, muzey, kuzatuv binosi va maydonlari yaratiladi, shuningdek, oʻquvchilar va talabalar uchun ekskursiyalar tashkil etilmoqda. Pitomnikni turizmning yangi yoʻnalishi sifatida rivojlantirish maqsadida bu yerda tashrif markazi hamda pitomnik va uning tarixi haqida maʼlumot beradigan maxsus muzey yaratilgan. Pitomnikda shuningdek bogʻliq maxsus suvenirlar liniyasi, brend doʻkonlari hamda tematik kafelar tashkil etilishi rejalashtirilgan. Pitomnik xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun kerakli texnikalar bilan taʼminlanib, shu jumladan, avtomobil, kvadrotsikl, live-kameralar, fotoqopqonlar ijarasi yoʻlga qoʻyiladi. Turizmni rivojlantirish qoʻmitasining taʼkidlashicha, ushbu turistik infrastruktura yaratilishi natijasida “Jayron” pitomnigi yiliga 20 mingga yaqin sayyohni qabul qilish salohiyatiga ega boʻladi.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda turistlarning koʻp tashrif buyurishi yurtimizning tabiiy hududlariga boʻlgan qiziqishlari ortib bormoqda. Shu bois, Jayron pitomnikda

ham keyingi yillarda turistik manzillarni ko‘paytirish mehmonlarning e’tiborini jalb qilish borasida ibratli ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий географияси. Ўқув қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1996. – 264 б.
2. Гафарова С.М., Гуламов М.И. Современная физико-географическая и экологическая характеристика города Бухары // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2021. 12 (90).
3. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. Buxoro, 1994.
4. Buxoro viloyati o‘lkashunoslik atlas. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastri davlat qo‘mitasi. – Toshkent, 2014.